

XALQARO SIYOSATDAGI ASOSIY KUCH MARKAZLARI: AQSH, XITOIY, ROSSIYA, YEVIROPA DAVLATLARI

Abduraxmon Sharipov Buron o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti sobiq 4-bosqich talabasi

Sabdurahmon27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro siyosatdagi asosiy kuch markazlari, jumladan AQSH, Xitoy, Rossiya va Yevropa davlatlarining rolini tahlil qiladi. Mazkur kuch markazlarining global siyosatga ta'siri, ularning iqtisodiy va harbiy salohiyatlari hamda strategik maqsadlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ularning o'zaro aloqalari va raqobati yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro siyosat, AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa davlatlari, iqtisodiy qudrat, harbiy salohiyat, strategik maqsadlar, global ta'sir, kuch markazlari

KIRISH

Xalqaro siyosat tizimi murakkab va dinamik jarayonlar bilan tavsiflanadi. Unda turli kuch markazlari o'z iqtisodiy, harbiy va geostrategik salohiyatlari orqali global iqlimni shakllantiradi. Hozirgi kunda dunyo tartibida AQSH, Xitoy, Rossiya va Yevropa davlatlari asosiy o'yinchilar sifatida ajralib turadi. Ushbu kuch markazlari o'zaro aloqadorlik va raqobat vositalari orqali xalqaro xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va diplomatik munosabatlar rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Har bir kuch markazining o'ziga xos geostrategik ustuvorliklari, tashqi siyosiy maqsadlari va mintaqaviy ta'sir doiralari mavjud. Ular global masalalarda nafaqat liderlik qilishga intiladilar, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, energetika xavfsizligini ta'minlash va ekologik muammolarni hal qilishda ham faol qatnashadilar. Shuningdek, mazkur davlatlarning o'zaro ta'siri, ayniqsa iqtisodiy integratsiya va xavfsizlik masalalarida, xalqaro tizimning o'zgaruvchan tabiatini aks ettiradi.

Mazkur maqola ushbu kuch markazlarining xalqaro siyosatdagi o'rnini, ularning strategik manfaatlarini va global ierarxiyadagi mavqeini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, dunyo siyosatidagi raqobat va hamkorlik mexanizmlari muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro siyosat bo'yicha tadqiqotlarda asosiy kuch markazlarining roli turli nazariy paradigmalarda ko'rib chiqilgan. Realistik yondashuv tarafdorlari, masalan, H. Morgentau va K. Uoltzning asarlari, davlatlarni xalqaro tizimning asosiy o'yinchilari sifatida tahlil qiladi va ularning harbiy hamda iqtisodiy qudratiga asoslangan kuch balansini markaziy omil sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, liberal yondashuv, ayniqsa J. Nye va R. Keohane kabi olimlarning ishlarida, xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy

integratsiya va diplomatik hamkorlikni kuch markazlarining global siyosatdagi rolini aniqlovchi muhim omillar sifatida ko'rsatadi.

Postmodern va konstruktivistik yondashuvlar, xususan A. Wendtning qarashlari, davlatlarning identiteti va normativ qoidalarini tahlil qilgan holda xalqaro munosabatlarning ijtimoiy aspektlarini o'rganadi. Bundan tashqari, G. Modelskiyning dunyo tizimi nazariyasi va I. Wallersteinning dunyo iqtisodiyoti haqidagi ishlari xalqaro siyosatni yanada kengroq kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu nazariy manbalar xalqaro kuch markazlarining roli va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilishda asosiy poydevor sifatida xizmat qiladi.

Yevropaning 11 davlatidan 16 ming odam ishtirok etgan so'rov natijalariga ko'ra, Ukraina bosqini ortidan aksariyat yevropaliklar Rossiyaning dushman sifatida qabul qilmoqda. Yevropaliklarning Xitoyga nisbatan munosabati nisbatan iliqroq.

Xalqaro munosabatlar bo'yicha Yevropa kengashi (ECFR) o'tkazgan so'rovga ko'ra, yevropaliklarning uchdan ikki qismi Ukraina urushi ortidan Rossiyaning dushman sifatida ko'radi. Bu 2021-yilga qaraganda ikki barobar ko'p.

Yevropa va Rossiya munosabatlari kelajagi haqidagi savolga ishtirokchilarning deyarli yarmi aloqalar cheklanishini yoqlagan, ammo boshqacha qarashlar ham yo'q emas.

“Rossiya bilan aloqalarni tugal uzish tarafdori bo'lgan Polsha kabi davlatlar bor, hatto muzokaralar natijasida tinchlik bitimiga erishilgan taqdirda ham. Shuningdek, urushdan keyin Rossiya bilan bungacha mavjud barcha munosabatlarni tiklash tarafdori bo'lgan Bolgariya, Vengriya, Avstraliya va Germaniya kabi davlatlar ham bor”, - deydi Xalqaro munosabatlar bo'yicha Yevropa kengashi vakili Pavel Zerka.

Yevropaning ayrim yetakchilari, jumladan, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron Yevropada “strategik avtonomiya”ni rivojlantirishga chaqirdi, ya'ni mintaqaning Qo'shma Shtatlaridan mustaqil tarzda o'z-o'zini himoyalashiga. So'rov ishtirokchilarining 75 foizga yaqini Yevropa xavfsizlik masalasida AQShga suyanishi mumkin deb hisoblaydi.

“Albatta, bu ko'rsatkichni yevropaliklarning AQShga ishonchi avvalgiga nisbatan kamaygan, deb ham talqin qilish mumkin. Ehtimol, Donald Tramp prezidentligi aloqalarga rostdan darz yetkazishga muvaffaq bo'lgandir. Ammo buning boshqa bir talqini ham mavjud, ya'ni yevropaliklarning Ukrainada boshlangan urush natijasida xavfsizlik uchun mas'uliyatni o'z bo'ynilariga ola boshlaganligidir”, - deb izohladi buni Pavel Zerka.

TADQIQOT NATIJALARI

Turli manfaatlarning muvofiqlashtirilgan holda qaror qabul qilinishi AQSh tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir. *Milliy xavfsizlik kengashi yoki MXK (National Security Council - NSC)* ushbu jarayonda eng markaziy o'rin tutadi. MXK AQSh prezidentining rahbarligida faoliyat olib boradi va xalqaro xavfsizlik masalalari

bo'yicha eng muhim qarorlar qabul qilinishida bevosita ishtirok etadi. 1947-yilda tashkil etilgan ushbu kengash AQSh milliy xavfsizligini ta'minlash va tashqi siyosatni muvofiqlashtirish maqsadida turli davlat idoralari o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. MXK tarkibiga prezident, davlat kotibi, Pentagon rahbari, Harbiy kuchlarni Birlashgan shtab boshliqlari qo'mitasi raisi va Markaziy razvedka boshqarmasi (*Central Intelligence Agency - CIA*) direktori kiradi. MXK ning vazifasi turli idoralar o'rtasida tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari bo'yicha muvofiqlikni ta'minlashdan iboratdir. MXK ning roli tarixiy jihatdan o'zgarib borgan. Dastlab, bu kengash moslashuvchan emas deb tanqid qilingan, ammo Jon Kennedining prezidentlik davrida MXK ning ahamiyati oshirildi[1]. Keyinchalik, Genri Kissinjer va Zbignev Bjezinskiy kabi milliy xavfsizlik maslahatchilari MXK ni AQSh tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylantirdilar. Ularning fikri ko'pincha prezidentlar tomonidan inobatga olinib, davlat departamenti bilan muvofiqlashtirilgan qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Har bir prezident hokimiyatga kelganida, mamlakat xavfsizligini ta'minlash uchun milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqadi. Ushbu strategiya davlatning ichki va tashqi tahdidlariga qarshi kurashish, milliy manfaatlarni himoya qilish va xalqaro miqyosda o'z pozitsiyasini mustahkamlashni ko'zda tutadi. Har bir prezidentning xavfsizlik strategiyasi zamon talablari va dolzarb xavflarga qarab yangilanib boradi. Xususan, 2022-yilda AQSh prezidenti Joe Biden MXK bilan hamkorlikda yangi Milliy Xavfsizlik Strategiyasini e'lon qildi. Ushbu strategiya Amerika Qo'shma Shtatlarining xalqaro siyosiy yo'nalishlari, milliy xavfsizlik siyosati va global tahdidlarga qarshi kurashish strategiyalarini belgilab berdi. Biden strategiyasi Xitoyni AQShning eng katta uzoq muddatli raqibi sifatida belgilaydi. Rossiya esa, ayniqsa, Ukrainaga qarshi urush boshlaganidan keyin, strategiyada asosiy xavf sifatida ta'kidlangan. Bidenning strategiyasida NATO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, xususan, AQShning xalqaro ittifoqchilariga ishonchni qayta tiklash maqsadi bor.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi (*Department of Defense – DoD or Pentagon*) o'zining alohida xavfsizlik strategiyasiga ega. Ushbu strategiya, asosan, harbiy tayyorgarlikni kuchaytirish, qo'shinlarning jangovar samaradorligini oshirish va milliy mudofaani mustahkamlash kabi masalalarga qaratilgan. Pentagon strategiyasi milliy xavfsizlik strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi va global xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, bu strategiyalar faqat harbiy xavfsizlikni ko'zlamaydi, balki kiberxavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, energetika xavfsizligi kabi keng ko'lamli masalalarni ham o'z ichiga oladi. Kelgusida sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar xavfsizlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lishi kutilmoqda.

Milliy Xavfsizlik Agentligi (*National Security Agency - NSA*) AQShning eng yirik va maxfiy razvedka xizmatlaridan biri hisoblanadi. U asosan aloqa xavfsizligini

ta'minlash, signal razvedkasini amalga oshirish va mamlakatning kiberxavfsizligini mustahkamlash bilan shug'ullanadi. NSA 1952-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi milliy xavfsizlikni ta'minlash uchun global aloqa vositalarini kuzatish, tahlil qilish va shifrlashdir.

NSA AQSh hukumati, harbiy kuchlari va boshqa davlat idoralari uchun maxfiy ma'lumotlarni to'playdi va ularga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro terrorizm, kiberhujumlar va boshqa xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish uchun signal razvedkasini olib boradi. Agentlikning faoliyati maxfiy bo'lgani sababli, u ko'pincha jamoatchilik orasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. NSA signal razvedkasi orqali xalqaro va ichki aloqa tarmoqlarini kuzatish, ularni shifrlash va shifrlarni buzish bilan shug'ullanadi. Shu orqali, u davlatga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarni oldindan bilish va xavfsizlik choralari ko'rishga imkon yaratadi. NSA kiberxavfsizlik sohasida ham katta rol o'ynaydi. Agentlik AQShning muhim infratuzilma obyektlarini kiberhujumlardan himoya qilish, davlat sirlarini saqlash va raqamli xavfsizlikni ta'minlash bilan shug'ullanadi. Shu sababli, u zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektning xavfsizlik sohasida keng qo'llaydi.

Rossiya va Xitoyning xalqaro munosabatlari XXI asrning eng muhim geosiyosiy aloqalaridan biri sifatida ko'riladi. Ushbu ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiy, harbiy, energetik va siyosiy sohalarida chuqurlashib bormoqda. Ularning o'zaro munosabatlari nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham ta'sirchan kuch omiliga aylangan.

Rossiya va Xitoyning geosiyosiy hamkorligi o'zaro manfaatlarga asoslangan. Xitoy "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusini ilgari surar ekan, Rossiyaning geografik joylashuvi bu tashabbusning Yevroosiyo bo'ylab muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Rossiya Xitoy o'zining g'arb davlatlari bilan yuzaga kelgan geosiyosiy qarama-qarshiliklari fonida muhim strategik hamkor sifatida ko'radi.

Rossiya va Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashi doirasida ko'p qirrali hamkorlikni davom ettirib, G'arb tomonidan ilgari surilayotgan ko'plab tashabbuslarni muvofiqlashtirilgan holda rad etib kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, Ukraina va Tayvan masalalari, shuningdek, global xavfsizlik tizimida o'zlarining mustaqil pozitsiyalarini ta'minlash borasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy sohada Xitoy Rossiyaning eng yirik savdo hamkorlaridan biridir. Rossiya Xitoyga xom ashyo, ayniqsa neft va gaz eksport qiladi, Xitoy esa Rossiyaga yuqori texnologiyalar va sanoat mahsulotlari yetkazib beradi. 2022-yilda Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmi rekord darajaga yetib, 190 milliard dollardan oshdi. Bundan tashqari, ikki davlat o'zaro savdoda AQSh dollaridan voz kechish va milliy valyutalarda hisob-kitob qilishni rivojlantirishga intilmoqda.

Rossiya va Xitoy harbiy-texnik hamkorlikni mustahkamlab bormoqda. Ular muntazam ravishda qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazadi, bu esa mintaqaviy va global miqyosda o'z ta'sirini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ikki davlat AQSh va NATOning kengayishiga qarshi birlashgan pozitsiyaga ega.

Shunga qaramay, Rossiya va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikda muayyan muammolar ham mavjud. Rossiya Xitoyning iqtisodiy jihatdan o'zidan sezilarli darajada kuchli ekanligini tan oladi, bu esa kelajakda o'zaro teng huquqlilikni saqlashga ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda Xitoyning o'sib borayotgan ta'siri Rossiyaning mintaqadagi an'anaviy mavqeiga tahdid sifatida qabul qilinishi ehtimoli mavjud.

Bir tarafdin Xitoy o'zini yetakchi davlat maqomidan, BMT ning xavfsizlik kengashi a'zosiligi, katta yigirmatalik J-20 ga kirishi, qolaversa xalqaro miqyosidagi yuqori darajali uchrashuvlardagi ishtiroki bilan dunyo siyosati uchun alohida ahamiyat kasb etishi mumkin.¹ Lekin umumiy olib qaraydigan bo'lsak, Xitoyning global miqyosidagi muammolarni hal etishda bo'lgan ishtiroki ancha passiv darajada.

Xitoy xalqaro diplomatiyani shakllantirmaydi va boshqa davlatlar siyosatini yuritmaydi, hamda global kelishuvni amalga oshirmaydi.

Ko'pgina xalqaro miqyosidagi masalalar yuzasida ham Xitoy pragmatik tarzda, ya'ni ko'proq o'zini chetga olish siyosatini ma'qul ko'radi, bu ko'pgina hujjatlarda ham aksini topadi va mazkur hujjatlar yetarli ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. Albatta, agar bu masala Xitoyning o'ziga taalluqli bo'lsa, pozitsiya umuman boshqa va kuchli tarzda bo'ladi.

Albatta, bugungi kundagi Xitoyni uning iqtisodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi va bu davlat haqida birinchi navbatda yuzaga keladigan fikr bu uning iqtisodiy qudrati. Xitoyning butun dunyoga taklif qilayotgan iqtisodiy loyihalarining ko'lami, “bir makon – bir yo'l”, kabi megaproektlarga alohida e'tirbor qaratishi, uning tashqi siyosatida mavjud bo'lgan iqtisodiy va siyosiy aspektlarning o'zaro bog'liqligi kabi jihatlarni o'rganishni taqozo etadi.²

Zamonaviy davrda ko'pgina davlatlar Xitoyning iqtisodiy jihatdan bu darajada o'sishidan havotirga tushishmoqda. Bunga sabab sifatida esa Xitoy tashqi siyosatida muqim o'rin tutuvchi “Tinch rivojlanish” konsepsiyasi ko'rsatiladi. Bu konsepsiya Xitoyning umumjahon iqtisodiy rivojlanish modeliga mansubligini tasvirlab va qonuniylashtirishi barobarida, yer yuzida tinchlik va barqarorlik bo'lishida xizmat qilishini anglatadi. Umuman olganda, bu rivojlanish modeli, qanday qilib iqtisodiy rivojlanish orqali xalqaro siyosiy va xavfsizlik, qolaversa ichki barqarorlikga erishish mumkinligini izohlab beradi. Ushbu “tinch rivojlanish” nazariyasida alohida o'rin

¹ First ETNC report, Mapping Europe– China Relations: A Bottom–Up Approach, 2015. c 1–196

² Vision and Actions on Jointly Building Silk Road Economic Belt and 21st–Century Maritime Silk Road', March 2015 режим доступа: http://en.ndrc.gov.cn/newsrelease/201503/t20150330_669367.html. 12.12.2016).

Xitoyning rivojlanayotgan davlat sifatida qaralishiga va uning oldida ham boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan bir xildagi chaqiruvlar turganini ko'rsatishga qaratilgan.

Xususan, “Tinch rivojlanish” strategiyasi 2011-yilda e'lon qilingan bo'lsada, bungacha qariyb o'n yil vaqt, Xitoyning bu darajada yuksalishini qanday qilib to'g'ri yetkazishga sarflangan, bu holatdan norozi bo'lishi mumkin bo'lganlarni tinchlantirish maqsadida. Bu yangi doktrina qaysidir ma'noda Den Syaopin g'oyalarining yangi varianti sifatida qabul qilindi, uning fikriga ko'ra Xitoy tashqi siyosatida qulay vaziyatni kutib turish va o'zining imkoniyatlarini yashirish taktikalarini qo'llashni nazarda tutgan, shuning uchun ham asosiy o'rinda o'sha mavjud passivlikning oqlanishi sifatida qaraladi.

Bu doktrinaning tuzilishi jihatdan iqtisodiy liberalizmga oid qarashlar bilan bog'liq taraflari mavjudligi alohida qayd etiladi. Xitoy iqtisodining o'sishi butun dunyo, mintaq va dunyoning boshqa chekkalaridagi barqaror vaziyatga bog'liq. O'z navbatida Xitoyning xalqaro savdo, investitsiya va moliya jarayonida ishtirok etishi iqtisodning global miqyosida o'sishiga sabab bo'ladi va bu esa dunyoda tinchlik va barqarorlikka olib keladi. Xuddi shunga o'xshash tartib Xitoy ichki siyosiy va iqtisodiy boshqaruvida ham amal qiladi. Iqtisodiy rivojlanish mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi va bunday holat o'z navbatida iqtisodning ko'tarilishiga zamin yaratib kelmoqda.

Tashqi aloqalarga to'xtaladigan bo'lsak, “tinch rivojlanish” doktrinasi ko'pgina davlatlar bilan o'zaro foydali bo'lgan iqtisodiy va siyosiy kelishuvlarga ega ekanligini qayd etishimiz mumkin. Bu orqali biz Xitoy jamiyatida marksistik an'alarining chuqur ildizga egaligini, ya'ni iqtisod va siyosat o'rtasidagi bog'liqlik ham davlatning ichida va xalqaro maydonda ham mavjudligini ko'rsatib beradi. Amaldagi davlat rahbari Si Szinpin ham, ushbu strategiyaning siyosiy-iqtisodiy asosiy prinsiplarining hal qiluvchi markaziy roldaligini e'tirof etib kelmoqda.

Xitoy hukumati vakillari va sohadagi yetakchi mutaxassislari, shunga o'xshash g'oyalarni targ'ib qilish orqali Xitoyning mintaqadagi va butun dunyodagi iqtisodiyotning yetaklovchilik rolidagi o'rnini qayd etishadi. Xitoy rahbarlari har doim ularning davlati Aqsh yoki Yevropa davlatlari singari dunyoda yetakchi maqomi uchun da'vo qilmasligini aytib kelishadi, Xitoy tashqi siyosatini o'zaro siyosiy-iqtisodiy manfaat asnosida qurishga harakat qilishini ta'kidlashadi.³ “Tinch rivojlanish” nazariyasi Xitoy tashqi siyosatining rasmiy qarashlarida markaziy o'rinni egallaydi, ammo shu bilan bir vaqtda global munosabatlarning kengayishi natijasida yuzaga kelayotgan va bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar yuzasidan yangi yechim yo'llari ustida harakat ham olib borilmoqda. Xitoyning iqtisodiy tamondan o'sib borishi va

³ An Old Story and New World Peace, in Contemporary Chinese Political Thought: Debates and Perspectives. Edited by Fred Dallmayr and Zhao Tingyang. Kentucky: The University Press of Kentucky. 2012. 283 p

uning jahon iqtisodiyoti bilan uzviy bog'liqligini butun dunyo hamjamiyati havotir bilan qarshi olayotgan bo'lsada, Xitoy yangi iqtisodiy loyihalarni taqdim etishda davom etayotgani bilan ajralib turibdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida, Xitoy tashqi siyosati o'zining nazariy, amaliy va tarixiy asoslariga ega. Tashkil topgan davrdan to bugungi kungacha tabiiyki, tashqi siyosiy konsepsiya o'zgarib transformatsiyaga uchrab borgan. E'tiborga molik jihati shuki, tashqi siyosat masalasida Xitoyda asosiy rollarni shaxslar ijro etib bergan deyishimiz mumkin va albatta davlat asoschisi Mao Szedunni alohida e'tirof etish mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

Xitoy Xalq Respublikasi yuzaga kelgan davrdan Mao sotsializm tarafdorlari bilan muqim aloqalarni yo'lga qo'ydi va g'arb davlatlari, xususan yevropa bilan ham deyarli tashqi-siyosiy aloqalarni yuritmadi. Chunki, Yevropa mintaqasi davlatlari sotsializm qarashlaridan uzoqroq bo'lishgan va kapitalizm yo'lini tanlashgan.

Keyingi navbatda albatta, islohotchi Den Syaopin turadi, aynan uning hokimiyatga kelishi Yevropa eshiklarining ochilishi bilan ta'riflanadi. Syaopinning “Xitoycha xususiyatli sotsializm” g'oyasi kapitalizmga xos bo'lgan ochiq bozor munosabatlari o'rnatilishiga va birin-ketin Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yishga zamin yaratdi.

Katta ehtimol bilan, Xitoy tashqi siyosatining asolardan sanaladigan “Hamjihatlikda rivojlanish” g'oyasidan foydalanishni ilgari surishni va tashqi iqtisodiy faoliyat ko'lamini kengaytirishga bo'lgan harakatalarni o'stirishda davom etadi. Xitoy o'z tashqi siyosatining azaliy prinsipi soyada qolib, ortiqcha shovqin qilmasdan, qolaversa o'zining yetakchilikka bo'lgan da'volarini ochiqcha bayon qilmasdan harakatlanish g'oyasiga sodiq qolgan holda tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat olib borishini kutishimiz o'rinli bo'ladi. Albatta, zamonaviy xalqaro munosabatlar va jahon siyosatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar Xitoyning ham tashqi siyosati, vaziyatga qarab birmuncha o'zgartirishga yuz tutishi muqarrarligini ham alohida qayd etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Муҳаммадсидиқов М.М., Мустапова Ҳ.И., Битўраев Ў.Б. Жаҳон сиёсатининг минтақавий жиҳатлари. (Ўқув қўлланма). – Т.: Тошкент давлат институти, – 157 б.
2. Muhammadsidiqov M.M. Xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Darslik. – Т.: Qaqnus media, 2019. – 216 b.
3. Д.А.Юсеф Нассасра. Российско-сирийские отношения в контексте геополитической конкуренции на Ближнем Востоке //Международный научный журнал «Символ науки». №11. 2015. – 262 с.
4. Д.В.Стрельцова. Россия и странк вотока в постбиполяркй период. –М.: “Аспент пресс”, 2014. – 161 с.

5. Д.Данилов. (2019) Россия-НАТО: выбор рациональной стратегии, Научно-аналитический вестник Института Европы РАН, №3. – 175 с.
6. Г.Иришин. События в Северной Африке и на Ближнем Востоке: международные факторы [материалы Круглого стола] // Мировая экономика и международные отношения. 2012. –116 с.
7. Н.Марк. Евросоюз в концептуальных обоснованиях внешней политики России. Современная Европа, 2020, №3, – 38 с